



**BUXORO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**BUXORO VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

*2022- YIL YANVAR-APREL
(DASTLABKI MA'LUMOT)*




Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-aprel oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalaridan 6 818,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 101,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 91,6 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 38,7 % ga va suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishning – 2,0 % ga pasayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati





Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 242,9 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,6 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-aprel	2022- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oltingugurt, t.	266,0	691,0	259,8
Gips (gips tosh), t.	74 226,0	45 362,0	-28 864,0



Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bogʻliq burgʻulash xizmatlari


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-aprel	2022- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari, mln. soʻm	39 892,1	34 700,4	-5 191,7

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

yanvar-aprel

FHI*, % da



2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6 244,7 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 91,6 % ini tashkil etdi.


2021-yil yanvar-aprel

90,9 %

2022-yil yanvar-aprel

91,6 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2021- yilning yanvar-aprel oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 1,7 % (1,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 51,6 % (48,0 %) va quyi texnologiyalisi – 46,6 % (50,0 %)ni tashkil etdi.




Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 40,5 % (2021- yil yanvar-aprel oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 103,0 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 26,8 % (2021- yil yanvar-aprel oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 103,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,9 % (2021- yil yanvar-aprel oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 96,1 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 4,7 % (2021- yil yanvar-aprel oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 106,6 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Dizel yoqilg‘isi




Avtomobil benzini



Mazut



O‘simlik yog‘i (tozalangan)



Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa



Yumshoq bug‘doy va spelta uni



Konyak spirti (konyak distillyati)



Aroq



Uzum vinosi



Paxta linti



Paxta chigiti



Paxta tolasi




2022- yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 310,9 ming tonna avtomobil benzini (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 108,8 % ga), 122,9 ming litr uzum vinosi (81,6 %), 1433,2 ming litr aroq mahsulotlari (2,7 m) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-aprel	2022- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Mazut, ming t.	29,9	26,4	-3,5
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	3 373,0	2 623,0	-750,0
Paxta tolasi, t.	44 978,0	38 873,0	-6 105,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	29 242,5	27 499,4	-1 743,1
Paxta chigiti, t.	69 857,0	56 828,0	-13 029,0
Yig'ma konstruksiyalar elementlari, t.	14 249,7	15 185,0	935,3

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi esa 126,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,3 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa 89,3 % ga va ishlab chiqarish hajmi 20,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 5,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 108,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 106,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 317,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Oziq-ovqat, ichimliklar mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,9% ni, uning fizik hajm indeksi esa 109,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 96,1 % ga va ishlab chiqarish hajmi 1 015,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 97,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 25,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 28,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 109,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 103,6 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1 825,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yog'och va po'kak buyumlar, pohlol va to'qish uchun materiallar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish


2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra mahsulotlarni ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 117,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 %, fizik hajmi indeksi 102,9 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 62,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 59,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi 56,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 104,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 37,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 63,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 40,5 % ni, fizik hajm indeksi 103,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2 762,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish

2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish sanoatining chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 130,6 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni, fizik hajm indeksi 87,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 279,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,1 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 140,0 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-aprel	2022- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	2,3	2,4	0,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	433,1	396,9	-36,2

Yanvar-aprel
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 51,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-aprel	2022- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	6 010,1	5 044,2	-965,9
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	163,0	165,0	2,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 16,1 % ga pasayishi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 1,2 % ga oshganligi kuzatildi. .

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 696,0 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 110,7 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 39,5 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021-yil
yanvar-aprel

36,3%

2022-yil
yanvar-aprel

32,0%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021-yil
yanvar-aprel

63,7%

2022-yil
yanvar-aprel


68,0%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 6,7 % (2021- yil yanvar-aprel oylarida 2,6 %) ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib 31,9 % ni va Buxoro shahri 18,0 % ni, G'ijduvon tumani 11,7 % ni hamda Kogon tumani 7,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (110,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich G'ijduvon (119,2 %), Qorovulbozor (115,9 %), Buxoro shahri (115,3 %) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati


Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 31,9% shuningdek, Buxoro shahri 18,0 %, G'ijduvon 11,7 % ni, Kogon 7,0 % tumanlari tashkil etdi.



1 582,6 mlrd. so'm
2020- yil yanvar-aprel

2 162,7 mlrd. so'm
2021- yil yanvar-aprel

2 696,0 mlrd. so'm
2022- yil yanvar-aprel



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi

2020-yil 101,9 %

2021- yil 118,1 %

2022- yil 110,7 %

Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 46,2 % shuningdek, Buxoro shahri 16,7 % ni, G'ijduvon tumani 12,6 %, Kogon tumani 5,6 % ni tashkil etdi.

981,2 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-aprel

1 377,2 mlrd. so'm




2021- yil yanvar-aprel

1 832,7 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-aprel



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi






o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, 20,5 % ni, shuningdek, Jondor tumani 13,0 % ni, Kogon tumani 10,1 % ni, G'ijduvon tumani esa 9,9 % ni tashkil etdi.



Buxoro viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumani to'g'ri kelib, 42,2 % ni, shuningdek, Buxoro shahriga 11,5 % ni, G'ijduvon tumani esa 9,2 % ni tashkil etdi.

Buxoro viloyati

2020- yil

5 497,0 mlrd. so'm

2021- yil

5 207,3 mlrd. so'm

2022- yil

6 818,0 mlrd. so'm



2020- yil


101,9 %

2021- yil

86,6 %


2022- yil

101,3 %




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (150 537,5 ming so'm), Kogon shahrida (4 783,9 ming so'm), Kogon tumani (4 237,9 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (3 443,3 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Buxoro viloyati





ming. so'm
o'sish sur'ati

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 361,6 ming so'm bo'lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 44 912,1 ming so'mni, Kogon shahrida – 1 722,7 ming so'mni, Buxoro shahrida – 1 702.0 ming so'mni tashkil etdi.

Buxoro viloyati



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 2 353,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 34,5 % ni tashkil etdi.



Oʻzbekiston Respublikasi

2020- yil

1 332,5 mlrd. soʻm

2021- yil

1 792,2 mlrd. soʻm

2022- yil

2 353,2 mlrd. soʻm



2020- yil

24,2 %

2021- yil

34,4 %

2022- yil

34,5 %

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4921 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 271 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 25,8 % i) Buxoro shahriga, 598 tasi (12,2 % i) G'ijduvon tumaniga, 382 tasi (7,8 % i) Kogon tumaniga, 381 tasi (7,7 % i) Buxoro tumaniga, 362 tasi (7,4 % i) Jondor tumaniga, 354 tasi (7,2 % i) Romitan tumaniga, 289 tasi (5,9 % i) Shofirkon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

